



OLIY TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich

GulDu dotsenti, p.f.b.f.d., PhD,

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining ta'lim olish jarayonlari va ularning amalga oshirish mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, dual ta'lim, oliy ta'lim muassasasi, kadrlar tayyorlash, professional ta'lim, kunduzgi ta'lim, sirtqi ta'lim, kechki ta'lim

Аннотация. Вданной статье представлена информация об образовательных процессах будущих специалистов, обучающихся в высших учебных заведениях и механизмах их реализации.

Ключевые слова: высшееобразование, дуальное образование, высшее учебное заведение, подготовка кадров, профессиональное образование, очная форма обучения, заочная формаобучения, вечернее образование.

Annotation. This article provides information about the educational processes of future specialists studying in higher education institutions and the mechanisms for their implementation.

Key words: higher education, dual education, higher educational institution, personnel training, professional education, full-time education, part-time education, evening education.

Bugungi kunda Yangi O`zbekiston Respublikasida oliy ta"limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar



tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan:

-oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

-O`zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro`yxatiga, shu jumladan O`zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro`yxatiga kiritish;

-oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o`tkazish;

-xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo`naltirilgan ta'limdan amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

-oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa



qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rmini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

-oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta"minlash; oliy ta"lim muassasalarida ta"lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

-oliy ta'lim muassasalari professor-o,,qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta"minlash;

-O,,zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

-oliy ta"limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

-talaba-yoshlar ta"lim-tarbiyasi uchun qo`shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o`z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

-ta`limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o,,zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash[1]. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallahsga bo`lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.



Talabalar o`qishga O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan alohida elektron platforma yoki O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali dual ta`lim shakli bo`yicha qabul qilinadi. Kunduzgi, kechki va sirtqi ta`lim shaklida ta`lim olayotgan talabalarning dual ta`limiga o`qishini ko`chirish taqiqlanadi. Professional ta`lim muassasasi va tashkilot o`rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda talaba(lar) o`qishi mos ta`lim darajasidagi kunduzgi, kechki va sirtqi ta`lim shakliga o,,tkaziladi.Dual ta`limni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:-dual ta`lim tashkil etiladigan tashkilotlarni Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralarning iqtisodiyot tarmoqlarida o`rta bo`g`in kadrlarga bo`lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish;

-tashkilot va professional ta`lim muassasasi hamda tashkilot va o`quvchi o`rtasida shartnoma tuzish;

-hududlarda kasbga yo,,naltirish ishlarini tashkil etish;

-tegishli ta``lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;

-mehnat bozorida o,,rta bo,,g,,in kadrlarga bo`lgan talab va takliflarni doimiy o`rganib borish;

-dual ta``lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Dual ta`limni joriy etish bo`yicha tashkilot va professional ta`lim muassasasi o`rtasida, o`quvchi va tashkilot o`rtasida rasmiylashtiriladigan shartnomalarning namunasi vazirlik tomonidan O`zbekiston Respublikasi Kambag`allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Dual ta`lim dasturi vazirlik tomonidan tasdiqlangan o`quv-metodik hujjatlar asosida professional ta`lim muassasasi tomonidan tashkilot bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. O`qitish davomiyligi, nazariy va amaliy ta`lim muddatlari hamda yakuniy davlat attestatsiyasi tashkilot va professional ta`lim muassasasi



tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigi asosida belgilanadi[2]. Oliy ta'lismiz tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ta'lismiz sifatini oshirish maqsadida:bakalavriat ta'lismiz yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari ilg'or xorijiy tajriba hamda iqtisodiyot soha va tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji asosida qayta ko'rib chiqiladi;

-oliy ta'lismiz dasturlari yetakchi oliy ta'lismiz muassasalarini bazasida xalqaro tashkilotlarning ta'lismiz sohalari reytingida yuqori 200 talik ro`yxatiga kirgan xorijiy oliy ta'lismiz tashkilotlarining dasturi asosida qayta ishlab chiqiladi;oliy ta'lismiz muassasalarining o'quv laboratoriya bazasiga qo'yilgan talablar ta'"lim dasturlariga, ilmiy laboratoriyalar iqtisodiyot soha va tarmoqlaridagi texnologik jarayonlarga moslashtiriladi;

-professor-o,,qituvchilar yuklamasi o,,quv va ilmiy faoliyatga, o,,quv jarayonlari esa talabalarda mustaqil ta'"lim olish ko,,nikmasini rivojlantirishga yo,,naltiriladi[3].

O'zbekistonda 2021/2022 o'quv yildan boshlab, Germaniya ta'lismiz tizimida o'z samarasini berib kelayotgan ta'limga dual shakli joriy qilinib, yoshlarni kasb-hunarlariga o'qitish borasida ta'lismiz muassasasida olingan nazariy bilimlarni bir vaqtning o'zida amaliyotda qo'llash imkonini beradigan yangi ta'lismiz shakli joriy qilindi.Dast avval ushbu ta'lismiz shaklini O'zbekistonda joriy etish va uni takomillashtirish bo'yicha huquqiy asos yaratildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lismiz to'g'risida"gi O'RQ-637-sون Qonunining 15-moddasida dual ta'lismiz alohida ta'lismiz shakli sifatida belgilangan bo'lsa, ushbu Qonunning 17-moddasida esa dual ta'lismiz shakliga quyidagicha ta'rif berilgan: "dual ta'lismiz ta'lismiz oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lismiz tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lismiz oluvchining ish joyida amalga oshiriladi". Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ham O'zbekistonda



Germaniya tajribasi asosida dual ta'lim shaklini tizimli rivojlantirish masalasiga e'tibor berilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108сон Farmonida 2021/2022 o'quv yildan boshlab, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini joriy etish belgilandi. Bu orqali O'zbekiston mehnat bozoridagi real ehtiyojlar, korxona (tashkilot)lar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o'rnlari bo'yicha mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yangi mexanizmlari joriy qilina boshlandi. Shu bois, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning ekspertlari bilan hamkorlikda dual ta'limni tashkil etishning aniq tartib va qoidalari ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasining “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” 2021 yil 29 martdagi 163-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 4 ta bobdan iborat bo'lgan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlanib, bugungi kunda o'quvchilar ushbu nizom talablari asosida dual ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilinmoqda. Dastlabki yilda dual ta'lim shakli bo'yicha kollej va texnikumlarga maktabgacha ta'lim, temir yo'l va qurilish kabi sohalarga 2 mingdan ortiq o'quvchilar o'qishga qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik korxonalarning ushbu ta'lim shaklida o'zlari uchun o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashga ehtiyojining oshib borishi natijasi dual ta'lim shakli kengayib bordi. Bu ta'lim shaklida ish beruvchilarga eng yaxshi mutaxassislarni tanlab olish va ishga qabul qilish imkoniyati yaratildi desak xato bo'lmaydi. 2022/2023 o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingga yaqin yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham ushbu ta'lim shaklida o'rta bo'g'in kadrlar



tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 234 ta professional ta'lismuassasalaridagi 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar dual ta'lism shaklida ta'lism olmoqda. O'quvchilarga korxona (tashkilot)larning 3144 nafar malakali xodimlari "ustoz" sifatida biriktirilgan bo'lib, ular tomonidan o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari bevosita ish joylarida shakllantirilmoqda. Shuningdek, ayni vaqtida avtomobilgacha texnik xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, maktabgacha ta'lism, yengil sanoat va xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda dual ta'lismning ulushi boshqa sohalarga qaraganda ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, O'zbekistondagi 3600 dan ortiq korxona va tashkilotlar dual ta'limda ishtirok etmoqda. Oliy ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O`zbekiston yoshlari kelajagini yaratish uchun kafolatlangan zamin yaranilmoqda.

Professional ta'lismuassasalari bitiruvchilarini kelgusida o'zini o'zi band qilish ya'ni o'zining shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishi uchun albatta ularni o'qitish va ta'lism jarayoniga yangi metodikalarni joriy qilish muhim masala hisoblanadi.

Ingliz va Nemis tilini o'qitish kurslariga jalb etilgan o'quvchilarni o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash maqsadida Gyote instituti tavsiyasi asosida Germaniyadan 4 ta nomdagi A1, A2, B1, B2 darajalarini o'zlashtirishga mo'ljallangan 6 ming nusxada zamonaviy o'quv adabiyotlar xarid qilindi hamda ta'lismuassasalariga yetkazildi. O'zbekiston mehnat bozorini zamonaviy kasbiy-ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlar bilan ta'minlash orqali iqtisodiyotning davlat ahamiyatiga ega tarmoqlari va sanoat korxonalari uchun professional va malakali o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 3 iyuldaggi PQ-200-sون qarorida korxona va tashkilotlarning buyurtmalari asosida professional ta'lismuassasalarida dual



ta'lim shaklida yil davomida o'quvchilarni o'qishga qabul qilish tizimini joriy etish belgilanganligi ushbu ta'lim shaklini rivojlantirishga katta turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida tashkil etilayotgan ish o'rinalarida o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishi natijasida professional ta'lim muassasalarida tashkilotlarning buyurtmalari asosida yil davomida dual ta'lim shaklida o'qitishni yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023 yil 7 dekabrdagi 647-son qarori bilan professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni yil davomida tashkilotlarning buyurtmalari asosida dual ta'lim shaklida o'qitishni tashkil etish imkoniyati yaratildi. Mazkur qarorning qabul qilinganligiga qaramay bugungi kunda 20 dan ortiq korxonalarning mavjud ehtiyojlari asosida 750 nafar o'quvchilar dual ta'lim shakliga o'qishga qabul qilinganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, bundan buyon tashkilotlardan biriktirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Shuningdek, 2024/2025 o'quv yiliga qadar mehnat bozorining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan joriy va istiqbolli ehtiyojni aniqlashga mo'ljallangan elektron platforma yaratilib, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash istagida bo'lgan tashkilotlar va professional ta'lim muassasalari bilan tuziladigan shartnomalarni elektron shaklda imzolash tizimini joriy etish rejqlashtirildi. O'zbekistonda dual ta'lim shaklini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida joriy yil yakuniga qadar dual ta'lim shaklida qamrov 100 ming nafarga yetkazilishi belgilanmoqda.. Bundan tashqari, yangi o'quv yili boshlanishiga qadar 100 ta kasb tanlab olinib, Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kasb



standartlarini ishlab chiqiladi. Bunda kasbga talab ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bobir o‘g‘li, A. T. (2025, April). MILLIY INTELLEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TAFAKKUR USLUBINING AHAMIYATI. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 9).
2. Abdullayev, T. B. O. G. L. (2023). INSON BORLIG ‘IDA ONG VA TAFAKKUR USLUBI MUTANOSIBLIGI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 97-101.
3. Абдуллаев, Т. Б. У. (2018). Духовно-нравственный облик молодежи в условиях глобализации. *Academy*, 2(6 (33)), 67-69.
4. Abdullayev, T. B. O. G. L. (2022). BILISH FALSAFASI TARAQQIYOTIDA AL-BERUNIYNING O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, (3), 222-224.
5. Abdullaev, T. (2023). TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(7), 138–143. <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N18>
6. Kendjaev, S. (2024). An Innovative Approach To Improving The System Of Moral Education Of Future Teachers. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(9), 102-111.
7. Kenjayev, S. (2024). PEDAGOGICAL METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(9), 80-86.